

**SENSOR INTEGRASIYA BUZILISHLAR****Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi**Alfraganus Universitety Pedagogika fakulteti,  
Defektologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi.**Utbasarova Umida Mexmanovna**Alfraganus Universitety Pedagogika va Psixologiya  
kafedrasi o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Sensor integratsiya buzilishlari bo'lgan bolalarda aqliy faoliyat, hotira, diqqat, tafakkur, idrok va hulq-atvor ko'nikmalari normada rivojlangan bo'lishiga qaramay berilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish va o'zlashtirishga qiyinchiliklarga duch keladilar.

**Kalit so'zlari:** Sensor integratsiya, sezgi analizatorlari, ko'rish idroki, eshitish idroki, ta'm bilish idroki, hid bilish idroki, teri-taktil sezgisi, vestibulyar apparat. Kuchli qo'zg'alish holati va tormozlanish holatining kuzatilishi.

**Аннотация:** Дети с нарушениями сенсорной интеграции сталкиваются с трудностями в получении и усвоении информации, несмотря на то, что мыслительная деятельность, память, внимание, мышление, восприятие и поведенческие навыки развиты нормально.

**Ключевые слова:** Сенсорная интеграция, сенсорные анализаторы, зрительное восприятие, слуховое восприятие, вкусовое восприятие, обонятельное восприятие, кожно-тактильное ощущение, вестибулярный аппарат. Наблюдение состояний сильного возбуждения и состояния торможения.

**Abstract:** Children with sensory integration disorders face difficulties in obtaining and assimilating information, despite the fact that mental activity, memory, attention, thinking, perception and behavioral skills are developed normally.

**Key words:** Sensory integration, sensory analyzers, visual perception, auditory perception, taste perception, olfactory perception, skin-tactile sensation, vestibular apparatus. Observation of states of strong excitation and states of inhibition.

### **Kirish:**

Xozirgi kunda meyor tushunchasi bolaning ijtimoiylashuviga ko'ra beriladigan tushunchadir. Tadqiqotlarni ko'rsatishicha 5%dan 15%gacha bo'lgan bolalar xech qanday intellektual buzilishlarsiz miya mexanizmlaridagi sensor buzilishlar natijasida maktab ta'limiga tayyor emas. Maktab ta'limiga bolalarni erta yoshdan jalb etilishi bolalarda intellektual salohiyatning pasayishi hamda surunkali tengdoshlaridan orqada qolishni yuzaga keltirishi mumkin. Bu jarayon birinchi sinfga qadam qo'ygan o'quvchilarda berilayotgan vazifani uddalay olmaslik tufayli darslarga nisbatan nafrat va qo'rquvni yuzaga keltiradi. Bolada bronxit yoki qo'l sinishi bo'lsa uni aniqlashqiyin emas lekin miyadagi yashirin ko'zga ko'rinmaydigan sensor buzilishlar bolalar xulqida, bilimlarni o'zlashtirishida, ijtimoiylashuvdagi qiyinchiliklarda yaqqol namoyon bo'ladi. Sensor buzilishga ega bo'lgan bolalar aksariyat hollarda yuqori intellekt, yaxshi xulqni nomoyon qilishlariga qaramay berilayotgan dasturni o'zlashtirishga qiynaladilar. Bizga atrof olamdagi ma'lumotlar 7ta sensor a'zolar yordamida qabul qilinadi.

Teri-taktil, xid bilish, ta'm bilish, ko'rish, eshitish, harakat, vestibulyar apparat. Sensor a'zoldan kelayotgan ma'lumotlar juda katta tezlikda tahlil qilinganligi sababli biz bu haqida hech o'ylamaymiz shuning uchun yopiq ko'zlar bilan kiyim kiya olamiz, oldimizdan chiqqan to'siqdan sakrab o'ta olamiz, yungli matolardan bo'lgan kiyimlarni kiya olamiz. Agarda bolada birorta sensor a'zoda buzilish kuzatilsa bolada ma'lumotni qabul qilish, tahlil va qayta reaksiyasidagi buzilishlarni ko'rish mumkin. Bolalar qattiq tovushlarga nisbatan o'ta sezuvchan bo'lib quloqlarni yopib oladilar va aksincha tovushlarni eshitadilaru lekin umuman e'tibor bermaydilar. Bu bolalardagi eshitish analizatoridagi buzilishlaridan dalolatdir. Yorqin ranglarga nisbatan o'ta

sezuvchan ularni ko'rganda injiqlanadi ,ko'zga umuman qaramaydi,zinalardan yurishni yoqtirmaydi. Bu bolalarda ko'ruv analizatoridagi buzilishlar mavjud.

Qo'llari ifloslanishidan qo'rqadi, teginishga nisbatan agressiya nomoyon qiladi, bitta kiyimni yoqtiradi, turli matolarga nisbatan o'ta sezuvchan, og'riqni his qilish kam shakllangan. Bu bolalarda teri taktil tizimida buzilish mavjud. Velosipedda uchmaydilar, sakramaydilar, betartib harakatlanadilar. Bu vestibulyar tizimdagi muammolardandir. Hidlarga nisbatan o'ta sezuvchan, predmetlarni hidlash, ovqatlarni hidlash, ovqatlarni tanlab yeyish. Hid bilish va ta'm bilish sezgisida muammolar mavjud. Uyqusi yomon, yangi joyga nisbatan kuchli agressiya, nutq va mushak tizimida buzilishlar mavjud. Sensor buzilishlarning ikkita shakli mavjud.

Elementar sensor buzilishlar- yorug'li, rang, balandlik, ovozga nisbatan sezgi a'zolaridagi sezuvchanlikning meyyordan ortishi. Bu buzilishlar pereferik va qobiqosti sohadagi buzilishlar bilan bog'liq.

Murakkab gnozis buzilishlari- predmet shaklini, fazodagi

joylashuvini tushunishdagi qiyinchiliklar nutqni tushunishdagi buzilishlar. Miyaning qobiq qismi bilan bog'liq bo'lgan buzilishlar.

### **Xulosa:**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki; Sensor buzilishlar bolalarda harakatlarning tengdoshlariga nisbatan kechroq yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Bunda bola kech ag'anaydi, kech o'tiradi, kech emaklaydi. Nutq chiqishining kechikishi, she'rlarni yod olishdagi qiyinchiliklarning barchasi sensor buzilishlardan dalolatdir. Go'daklik davrida harakatlarning rivojlanishi miya mexanizmlarining me'yorda ishlashini ta'minlaydi. Bola hayotining birinchi uch yilligida teri taktil sezgilarini rivojlantirish uning psixoemotsional rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli bolalarni erta yoshdan o'qish va yozishga jalb etish xato hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabyotlar:**

1. Anan'ev B. G. "Psixologiya i problemi chelovechestva." I glava "Sensornopereseptivnaya organizatsiya cheloveka"-M.: MPSI, MODEK, 2008.
2. Anokhin P.K. "Prinsipialnye voprosy obshchei teorii funktsionalnykh sistem"- M.: Nauka, 1973.
3. Vizel T.G. "Osnovy neyropsixologii"- M.: AST, 2009.  
zamonaviy ta'lim muammolari 2013. 2-son.
6. Lyskaya M.I. "Formirovaniye rechevoy deyatel'nosti u ne govoryashchikh detey s ispol'zovaniyem innovatsionnykh tekhnologiy"-M.: Paradigma, 2012.
7. Sadovskaya Yu. 5. Bolalarda sensor buzilishlar, maxsus bola bilan tizimlashtirish va tashxislash. Issledovaniye i opit pomoshi, nauchn, - prakt, sb, - 2009. вып. 6-7.- м. SAP.-
8. Seminovich A.V. "Neyropsixologicheskaya diagnostika i korrektsiya v detskom vozraste"-M.:
9. Ulla Kisling "Sensornaya integratsiya v dialoge"-M.: Terevinf, 2016.
10. E.Jin Ayres "Bola va sensor integratsiya"- M.: Terevinf, 2009.